

SAMARQAND HUDUDIDAGI ZIYORATGOHLARNI XALQ TURMUSHIDAGI O'RNI

Abdumannonov Oybek Abdumannonovich

Mirzo ulug`bek nomidagi O`zbekiston

Milliy universiteti Tarix fakulteti

2-kurs "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" yo`nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7605460>

Annotatsiya. Ziyoratgohlarni xalq turmushidagi o`rnini o`zoro tahlil qilar ekanmiz mahalliy xalq tarixida, milliy urf-odatlarida umuman olganda turmush tarzida ajralmas bir bo`lagiga aylanganligini ko`rishimiz mumkin. Chunki, ziyorat marosimlari ham xalq ongi va dunyoqarashi asosida o`zgarishi, ayrim urf-odatlarining esa transformatsiyaga uchraganligini yaqqol ko`rish mumkin. Jumladan, Samarqand vohasi aholisi ziyoratgohlarga borish va ziyorat marosimlarini bajarishdan asosiy maqsad, Allohning inoyatiga erishish, avliyodan baraka hamda madad so`rash, kasallar dardiga shifo, befarzandlar esa farzand so`rash hisoblanadi. Shu bilan birga, ziyoratchilar o`ziga xos ruhiy yuksalish (himmat)ga erishishlariga ishonadi.

Kalit so`zlar. ziyoratgoh, avliyo, e`tiqod, ziyorat, " muqaddas", ma`naviy, qadamjo, buloq, g`or, Samarqand, xalq, turmu-tarzi, duo

Samarqand viloyatidagi ziyoratgohlarning xalq turmushidagi o`rni. Hozirgi kunda Samarqand viloyati nafaqat sharq balki umujaxon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jaxon tan olmoqda. Aynan mazkur zamin g`oyat xilma-xil ziyoratgohlarga, muqaddas qadamjoylarda, tarixiy, memoriy obidalarha boy hududdir. Ushbu mintaqa islom dini va tasavvuf taraqqiyotiga buyuk xizmatlar qo`shgan. Buyuk allomalar imom Buxoriy, Ahmad yassaviy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg`inoniy, Moturudiy, Abduxoliq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xo`ja ubaydulloh Ahror, Mahdumi A`zam singari ulug` zotlarni yetishtirib bergan muqaddad joydir[1]. Tarixdan ma`lumki, Samarqand shahri qadimdan o`zinging tarixiy obidalarini bilan mashhur bo`lishi bilan birga o`ziga xos ziyoratgoh shahar, turizm rivojlangan hudud hisoblanadi. Ushbu hududda shunchalik ko`p ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar, memomiy obidalar mavjudki, boshqa yurtlarda bunchalik ko`p va mashhur avliyolar, ulamolar, allomalar ziyoratgohlari va qadamjoylarning majmuasini topish amri maholdir. Bu yerda dunyoga mashhur islomiy ulamolar nomlari bilan bog`liq ziyoratgohlar shuningdek, islomgacha bo`lgan diniy qarashlar bilan bog`liq qadamjoylar,

Movorounnahr zaminiga islomni olib kelgan shaxslar va ularning avlodlari, davlat arboblari, tariqat vakillarining qabrlari va qadamjoylari, shuningdek islomiy ziyoratgohlar bilan birga islomgacha bo`lgan o`zaro uyg`unlashgan ko`rinishlarini uchratish mumkin[2].

Shuni ta`kidlash kerakki, Samarqand ziyoratgohlarini mavqeiga qarab mahalliy va umummiqiyosdagi muqaddas joylarga ajratish mumkin. Jumladan, Samarqand viloyatidagi Xo`ja Ro`shnoi, Bibimushkulkushod, Doniyorbek chashmasi kabi ziyoratgohlar asosan shahar aholisi tomonidan ziyorat qilinadigan mahalliy muqaddas joylar hisoblanadi. Samarqand shahridagi Shohizinda majmui, Amir Temur maqbarasi, Cho`ponota, Xazrati Dovud qadamjoyi kabi ziyortagohlar Toshkent viloyatidagi Zangi ota, Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy, Farg`onadagi Shohimardon, O`shdagi taxti Sulaymon kabi ziyoratgohlar esa Markaziy Osiyo musulmonlarning muqaddas joylari bo`lgan[3].

Samarqand viloyatidagi ziyoratgohlardan nafaqat mahalliy aholi o'rtasida balki, Markaziy Osiyo, chet el sayyohlari ham tez-tez uchrab turadigan biri Hazrati Dovud ziyoratgohidir. Samarqanddan 40 kilometr uzoqlikda Oqsoy qishlog'ida Hazrati Dovud g'ori yoki Muqaddas Dovudning ajoyib arxeologik yodgorligi, muqaddas qadamjo va tabiatning mo'jizasi joylashgan. Ma'lumki, Hazrati Dovud bir vaqtning o'zida uchta dinda hurmatga sazovor shahs hisoblanadi. Musulmonlar uni Hazrat Dovud, pravoslavlar va yahudiylar David deb atashadi. Uning bashorat va shifo qobiliyati bo'lganligi sabab, uning hayot hikoyasi sir va afsonalar bilan qoplangan. Hazrati Dovud 33 yoshida Isroil va Yahudiya Birlashgan Qirolligining hukmdori bo'lib, qirq yil davomida hukmronlik qilgan. Shuning uchun ham mahalliy xalq o'rtasida ushbu ziyoratgoh muqaddas hisoblanadi. Hazrati Dovud ziyoratgohiga har kuni o'nlab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Uning ichida barcha murojaatlar, qilingan so'rovlar, istaklar Xudoyi taolaga tezroq eshitaladi va amalga oshiriladi deb ishoniladi. Hazrati Dovud ziyoratgohining asosiy qismi aholi orasida ishoniladigan rivoyat tarzida yangrab turadigan g'or mavjud. Bu g'orda Dovud a.s. yrtib borganda g'oyib bo'lganligi to'g'risida rivoyatlarda tarqalgan. Bu g'orga yetish uchun 1303 pog'onali zinani yengib, yuqoriga ko'tarilishingiz kerak. G'or uzun tunnelga o'xshaydi, uning oxirida xurmolarning va Hazrat Dovudning qo'l va oyoq izlari saqlanib qolgan. Agar siz ularga teginsangiz, hatto eng ajoyib istak ham amalga oshadi deb ishonadi mahalliy xalq. Hazrati Dovud g'origa chiqish uchun 1500 ta zinani yengib o'tish kerak. Shuning uchun ham g'orga chiqarish uchun tuya, ot, eshak kabi hayvonlardan foydalaniladi[4].

Samarqand viloyatida xalq orasida muqaddas ziyoratgohlar ko'p bo'lib shunday ziyoratgohlardan yana biri mahalliy xalq orasida mashhur bo'lgan "Ko'k ota" ziyoratgohidir. Ko'k ota ziyoratgohi XIII asrlarda yashab o'tgan, asli ismi Xo'ja Ahmad bo'lgan, keyinchalik Ko'k ota nomi bilan elga tanilgan, tibbiyot ilmi bilan shug'ullangan, huzuriga kelgan turli kasallarga shifo topgani uchun halq orasida avliyo sifatida nom qozonib, ulkan obodonchilik ishlarini olib borgan. Hozirgi kunda Samarqand viloyati Narpay tumanida joylashgan ziyoratgohga kelgan ziyoratchilar turli kasalliklarga shifo istab keladi.

Toyloq tumanidagi imom Faxriddin ota ziyoratgohi ham xalq orasida muqaddas ziyoratgohlarda hisoblanib, bu ziyoratgohga kelgan ziyoratchilar ziyoratgoh yonidagi buloq suvini turli kasalliklarga shifo deb bilishadi.

O'zbekiston, jumladan Samarqand viloyati hududida ham aziz avliyolar qabri joylariga yerlar va muqaddas qadamjolar asosan ziyorat maskani bo'lish bilan birga ba'zida turli millat va elat vakillarining o'zaro aloqa qiluvchi, bir-birlari bilan o'zaro munosabat o'rnatuvchi joy ham hisoblangan. Ko'plab sa-marqandliklar haftaning har chorshanba kuni boradigan "Bibi mush-kulkushod", «Xo'ja Roshnoi» va "Doniyor chashmasi» ziyoratgohlarida o'ziga xos etnoslararo munosabat aks etganiga guvoh bo'lish mumkin[5]. Ziyoratchilarning

aksariyat qismini shahar va shahar atrofidagi turli millat vakillari tashkil etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Samarqanddagi muqaddas ziyoratgohlar azaldan samarqandliklarning mo'tabar va muqaddas dargohlaridir. Har bir fuqaro oilada yoshligidan ziyoratgohlarga ijobiy munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalanadi. Ziyoratgohlar kishilar ongida ezgulik manbai xar bir xalq vakilini mehr muruvvatga chorlovchi muqaddas joy

vazifasini o'tashi bilan birga ziyoratgohlarda o'ziga xos diniy bag'rikenglik yorqin namoyon bo'ladi.

References:

1. Payziyeva M. "O'zbek etnologiyasining dolzarb muammolari" / Toshkent 2017-yil B.249
2. Stanford Encyclopedia of Philosophy "Death" First published Wed May 22, 2002; substantive revision Wed Mar 13, 2019.
3. Ashirov A. "O'zbek xalqining qadimgi e'tiqod va marosimlar" / Toshkent 2007-yil B.275
4. Ashirov A. "Samarqand ziyoratgohlarida tolerantlik" / 2007-yil B.330
5. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar" / Toshkent 1994-yil B.255